



## ABDULLA ORIPOVNING SHE'RIY ASARLARIDA SO'Z QO'LLASH MAHORATI. "GENETIKA" SHE'RI MISOLIDA

Salomova Diyora Vahob qizi

"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash  
muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti

2-bosqich bakalavr talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7830518>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-april 2023 yil

Ma'qullandi: 10-april 2023 yil

Nashr qilindi: 15-april 2023 yil

### KEY WORDS

Genetika, kakhshon, so'z  
qo'llash, obrazlilik, barmoq  
vazni, ijtimoiy munosabat.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada Abdulla Oripov she'riy asarlarida so'z qo'llash mahoratining o'ziga xosligi yuzasidan fikr va mulohazalar yuritilgan bo'lib, ijodkorning "Genetika" she'ri tahlil etilgan. Shuningdek, she'r tarkibida kelgan ayrim so'zlar izohi, ma'no nozikliklari, so'zlarning qo'llanilish o'rni yuzasidan qarashlar mavjud..*

Abdullar Oripov she'riyatining o'ziga xosligi shundaki, kishilik jamiyatimizda amalga oshirilayotgan voqea-hodisalarga munosabat hissi jaranglab turadi. Ijodkorlik mahorati uning yaratgan asarlarida yaqqol namoyon bo'lishi bilan birga kitobxonlar xotirasiga muhrlanib qoladi. Abdulla Oripov she'rlarining tahlili yuzasidan shuni aytish mumkinki, uning so'zlarni serjilo qilib qo'llay olish qobiliyati, she'riy parchalarda ma'no nozikliklari ham ijodkorning boshqa qalam sohiblaridan ajralib turishini ta'minlab beradi. Asarlar ko'lami, mavzu doirasining mutanosib tarzda kitobxonlar yoshiga to'g'ri kelishi, she'riy asarlarga beriluvchi nom - bularning barchas ijodkor mahoratining ochib berilishida asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. "Abdulla Oripov she'rlaridagi beaded samimiyat, tuyg'ular chinligi kishini beixtiyor o'ziga asir qiladi. Shoir she'rlari kayfiyat va hissiyotning yaxlit obrazlaridir. U inson tuyg'ularini, hissiyotini shu qadar chuqur bilgani va ifoda eta olganidan butun she'r emas, balki ayrim misralarning o'ziyoq she'rxonda muayyan kayfiyat hosil qiladi".[1]

Abdulla Oripovning 1973-yilda yaratilgan "Genetika" she'ri ijodkorning o'tkir qalam sohibi ekanligidan va qolaversa, to'rtliklarga singdirilgan jozibadorlik kishilarni maftun etdi. Genetika - muallif she'rga bunday nom berishiga sabab, makon va zamonda hayot qonuniyatlarning davomiy harakati nisbat qilib olingan bo'lib, she'riy qismlar orqali olis o'tmish sadolari yang'lig' barhayot yashab kelayotgan kishilar qalamga olinadi. Shuning uchun ham Abdulla Oripov she'rning dastlabki qatorlaridanoq zamon va davr masalalarining o'ziga xosligini ochib berishga qaratilgan satrlar yaratgan. Genetika biologik holatlarni tadqiq etish, shu bilan birga kishinong tug'ilish, o'lish kabi inikolari sohasidir. Abdulla Oripovning she'r sarlavhasi sifatida Genetika so'zini tanlashi orqali yuqoridagi ma'nolar anglashiladi. Abdulla Oripov she'r qismlari tarkibida tariximizda yashab o'tgan jasorat egalarini yodga olar ekan, o'sha davr muhitini yaratib berish uchun hozirgi adabiy jarayondan nisbatan oldinroq ishlatilgan so'zlarni ham parchalarda keltirib o'tadi. Bu kabi masalalar ijodkorning dunyo

qolib ketishi, boylik-u shon shuhratning o'tkunchi ekanligini ifodalash bilan birga, so'z qo'llashda ayrim jihatlarini ham qo'llagan. Misol uchun: yuqorida keltirilgan ma'nolar anglashilishi va tushunarlik darajasi oshishi uchun "Bizdan ham qolg'usi bu qadim dunyo" jumlasini keltirilgan. Bunda birgina qolg'usi so'zining - g'usi qo'shimchasi bilan ifodalanishi kitobxonning e'tiborini tortishi, mulohazalar yuritishiga sabab bo'lishi mumkin. "Abdulla Oripov she'riyatidagi xalq qalbiga yaqinlik, xalq dilidagi quvonch va shodlik, armon va dardlarni topib so'ylash, insonning rangin tuyg'ularini rassomona ko'z bilan ilg'ab, musiqiy misralarda ifodalash, uning she'riyatidagi badiiy haqqoniyat uyg'unligi-shoir she'rlarining takrorlanmas, o'ziga xos xususiyatlaridandi".[2]

"Kahkashon sayrida hur quyosh bilan

Kezarsan to abad shoduman xurram.

Labda tabassum-u ko'zda yosh bilan

Senga talpinaman, buyuk nabiram"...

"Genetika" she'rining so'ngi misralarida kahkashon jumlasining ifodalanishi orqali gallaktika tushunchasini ifodalab qolmasdan, ezgulikning, eng yaxshi niyatlarning chegarasi yo'qligiga ishora beradi. Shuningdek, so'ngi misralar undalma tarzda jaranglashi yangi asr avlodlariga bo'lgan undalma sifatida jaranglab, "yuz-u ko'zing jaranglab hur olamga hayotguzaronlik qilursan" - deya, kelajak avlodga bildirilgan fikrning birgina nabiram jumlasini orqali ifodalanishida ham muallifning so'z qo'llashdagi mahorati ko'zga tashlanadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Abdulla Oripov ijodida so'z qo'llash mahorati uning yaratgan she'riy asarlarida yorqin namoyon bo'ladi. Shuningdek, she'riy misralarga singdirilgan mazmun she'rning yaratilishiga aloqador bo'lgan davr voqea-hodisalariga aloqadorlikni yuzaga keltiradi. Genetika so'zining she'r sarlavhasi sifatida tanlab olinishi ham ahamiyati sanaladi. Abdulla Oripov ushbu she'rda o'tgan davr va bugungi kun voqea hodisalarining o'zaro aloqadorligini inobatga olib, she'rning ma'lum qismlarida ayrim istilohlardan ham foydalangan ekanligi Abdulla Oripovning so'z qo'llash mahoratidan dalolat beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev Qozoqboy, Qodirov Valijon, Yo'ldoshibekov Jalolbek Adabiyot. 9-sinf uchun darslik. Abdulla Oripov she'riyati. Toshkent: "O'zbekiston" NMIU -2019
2. Raupova Orasta Ikrom qizi "Shoir she'rlarining o'ziga xos xususiyatlari" maqola. Science and innovation international scientific journal - 2022